

TXVUda “Ma’rifat ulashib” loyihasini amalga oshirish maqsadida o‘zbek adiblari bilan bo‘lib o‘tgan ijodiy uchrashuv

B A Y O N N O M A S I

2025 yil 15-oktabr

2025-yil 15-oktabr kuni Oliy ta’lim tashkilotida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida o‘zbek adiblari bilan ijodiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tadbirda taniqli adib va shoiralar Umida Abduazimova, Adiba Umirova hamda yozuvchi Islom Hamroyev ishtirok etdilar.

Tadbirni universitet Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori N. Kadirov kirish so‘zi bilan ochib berdi va mehmonlarni tadbir ishtirokchilari bilan tanishtirdi. Shundan song so‘z navbatini Umida Abduazimovaga berdi. Umida Abduazimova o‘zining adabiyot so‘ziga kirib kelishi, yozgan sherlarining yaratilish zharayonlari xakida to‘lqinlanib so‘zlab berdi va o‘zining sherlaridan birini o‘qib berdi. Shunda N.Qodirov so‘z navbatini Islom Hamroyevga berdi. Islom Hamroyev bugungi kunda yoshlarning ma'naviyatini boyitish maqsddida olib borilayotgan ma'naviy-marifiy ishlarning kulami, uzlariga berilib ketgandan tulakonli foydlanishlari kerakligi, kelajak yoshlar qo'lida ekanligini takidlab o'tdi.



Uchrashuvni Adiba Umirova davom ettirib, ish faoliyati va ijodi haqida qiziqarli ma'lumotlar berib o'tdi. Uchrashuv davomida adiblar yoshlar bilan o'z ijodiy faoliyatlari, adabiyotning jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari haqida samimiy suhbatlashdilar. Shuningdek, adiblar o'z asarlaridan namunalar o'qib berdilar hamda talabalarning savollariga javob berdilar.



Tadbir so'ngida ishtirokchilar adiblarga minnatdorchilik bildirib, bunday ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.





Ushbu uchrashuv orqali talabalar o‘zbek adabiyotining boy merosi, ijod jarayoni hamda adiblarning hayotiy tajribalari haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘ldilar. Tadbir yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ma’naviy dunyosini boyitish hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

“Ma’rifat ulashib” loyihasi mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalari hamda umumta’lim maktablarida kitob mutolaasini targ‘ib qilish, badiiy savodxonlikni oshirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni maqsad qilgan. Tadbirda universitet madaniyat va ijodkorlik markazi hamda tyutorlari ishtirok etdilar

**TXVU Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo’yicha birinchi Prorektori:**

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova